


TOSHKENT VILOYATIINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 4 118,6 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,4 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 1 595,6 mln. AQSH dollarga (13,5 %ga oshgan) va import hajmi 2 523,0 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 40,0 %) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 927,3 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.


Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)



So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-


ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

Toshkent viloyati tashqi savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari
(o‘tgan yilga nisbatan,%)



Shu bilan birga ta’kidlab o‘tish kerakki, 2018 yilning dekabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, noyabr oyiga nisbatan 96,6 mln. AQSH dollarga ko‘proq eksport qilindi va 289,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 295,3 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lib, bu esa noyabr oyiga nisbatan 105,3 mln. AQSH dollariga ko‘proqdir. Bu asosan mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlariga to‘g‘ri keldi.

**2018 yilda tovar va xizmatlarning oylik
eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi**
(mln. AQSH dollari)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSH dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Turkiya	873,8	563,1	310,7	21,2
Rossiya	863,4	197,1	666,3	21,0
Xitoy	651,2	198,8	452,4	15,8
Qozog'iston	536,0	156,0	380,1	13,0
Koreya Respublikasi	159,4	12,7	146,7	3,9
BAA	121,0	119,1	1,9	2,9

(mln. AQSH dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Afg'oniston	119,3	119,3	0,0	2,9
Belarusiya	87,9	15,6	72,3	2,1
Tojikiston	87,1	20,7	66,4	2,1
Ukraina	66,8	28,4	38,4	1,6
Germaniya	53,1	1,8	51,2	1,3
Polsha	51,4	10,6	40,8	1,2
Singapur	39,5	38,0	1,4	1,0
Gollandiya	36,3	8,4	27,9	0,9
Eron	36,3	26,8	9,5	0,9
Litva	33,6	0,4	33,2	0,8
Latviya	27,4	0,7	26,7	0,7
Italiya	27,0	1,2	25,8	0,7
Qirg'iziston	25,5	11,0	14,5	0,6
Avstriya	22,6	2,2	20,43	0,5
Braziliya	22,1	0,0	22,1	0,5
AQSH	22,0	1,5	20,5	0,5


Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,7 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,4 % ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 65,1 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2018 yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 59,3 %ga yetdi.

EKSPORT

2018 yil yanvar-dekabr oylarida eksport hajmi 1 595,6 mln. AQSH dollariga (13,5 % ga oshgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,1 % ulushga ega, bular asosan qora va rangli metallar (67,4 %), boshqa turdagi tovarlar (13,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari (10,8 %), paxta tolasi (3,7 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (2,5 %), mashina va uskunalar (1,5 %), xizmatlar (0,9 %) shuningdek, energiya manbaalari va neft mahsulotlari (0,02 %) guruhlariga hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSH dollari)




Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	1 595,6	113,5	100,0	436,6	115,1	100,0	1 159,0	112,9	100,0
Paxta tolasi	59,5	33,2	3,7	1,3	21,0	0,3	58,2	33,7	5,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	172,6	220,7	10,8	130,3	311,9	29,8	42,3	116,1	3,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	39,7	48,5	2,5	19,5	36,4	4,5	20,2	71,5	1,7
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,4	31,4	0,03	0,4	0,0	0,09	0,0002	0,02	0,0
Qora va rangli metallar	1 075,8	136,4	67,4	125,2	101,2	28,7	950,6	143,0	82,0
Mashina va asbob-uskunalar	24,1	80,6	1,5	7,4	154,1	1,7	16,7	66,5	1,4
Xizmatlar	14,3	80,4	0,9	1,8	27,2	0,4	12,5	112,9	1,1
Boshqalar	209,2	91,2	13,17	150,7	105,7	34,51	58,6	67,4	5,1

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari noyabr va dekabr oylarida kuzatilgan. Bu asosan qora va rangli metallar, oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan yilga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2018 yilning dekabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar noyabr oyiga nisbatan 50,1 %ga oshgan.

Xizmatlar eksporti hajmi 14,3 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,9 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,6 %ga kamaygani kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2018 yilning dekabr oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, noyabr oyiga nisbatan 96,6 mln. AQSH dollariga ko'p eksport qilindi va 289,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 14,3 mln. AQSH dollarga yetgan.

2018 yilda tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi
(oylar kesimida, mln. AQSH dollari)



Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(2018 yil yanvar-dekabr, %)



	Turkiya
	Xitoy
	Rossiya
	Qozog'iston
	Afg'oniston
	Angliya
	Singapur
	Ukraina

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 47,8 % ini tashkil qiladi. Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 171,6 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 130,6 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati - 305,3 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 80,5 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 38,8 mln. AQSH dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 57,0 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 53,4 ming tonna meva va rezavorlar 58,2 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 36,2 ming tonnaga ko'pdir.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o'tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 97,0 mln.AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 240,0 %ga o'sgan).

IMPORT

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 2 523,0 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 140,0 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (37,0%), qora va rangli metallar (21,3 %) hamda boshqa mahsulotlar (19,3 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSH dollari)




Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	2 523,0	140,0	100,0	1 239,9	167,2	100,0	1 283,1	121,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	212,3	77,8	8,4	129,9	203,5	10,5	82,4	39,4	6,4
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	164,6	103,9	6,5	36,8	86,8	3,0	127,8	110,2	10,0
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	45,3	171,7	1,8	43,9	182,0	3,5	1,4	62,8	0,1
Qora va rangli metallar	537,0	347,7	21,3	373,7	316,3	30,1	163,3	449,9	12,7
Mashina va asbob-uskunalar	934,3	138,8	37,0	268,9	200,1	21,7	665,4	123,5	51,9
Xizmatlar	142,6	159,0	5,7	6,5	111,8	0,5	136,2	162,3	10,6
Boshqalar	486,7	114,1	19,3	380,2	107,8	30,7	106,5	144,1	8,3

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari fevral, oktyabr, noyabr, dekabr oylarida kuzatilgan.


**Tovarlar va xizmatlar importining o'sish
sur'atlari dinamikasi**
(o'tgan yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2018 yilning dekabr oyida import qilingan tovar va xizmatlar noyabr oyiga nisbatan 55,5 %ga oshgan.


Xizmatlar importi hajmi 142,6 mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining 5,7 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 36,2 %ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

2018 yilda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSH dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2018 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar dekabr oyida, noyabr oyiga nisbatan 105,4 mln. AQSH dollarga ko'p import qilindi va 2 523,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (2018 yil yanvar-dekabr, %)



Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarning eksport-importi
(2018 yil yanvar-dekabr holatiga)

	Eksport-import qilgan korxonalar soni	mln. AQSH doll.	O'tgan yilning shu davriga nisbatan foiz xisobida
Eksport	99	217 600,9	76,6
Import	261	654 464,7	140,1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatga 86 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Turkiya, Koreya Respublikasi va Belarusiya hamkor davlatlarining jami import hajmi 2 028,4 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 80,4 %ini tashkil qiladi

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar viloyatimizga olib kirilayotganligini ko'rish mumkin.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 71-230-86-59**